



MIRZACHO'L VOHASI AHOLISI TURMUSH TARZI VA MADANIYATIGA  
OID TARIXIY VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR TAHLILI

АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ОБ  
ОБРАЗЕ ЖИЗНИ И КУЛЬТУРЕ НАСЕЛЕНИЯ МИРЗАЧОЛЬСКОГО ОАЗИСА

ANALYSIS OF HISTORICAL AND MODERN RESEARCH ON THE  
LIFESTYLE AND CULTURE OF THE POPULATION OF MIRZACHOL OASIS

Jo'rayev Ilxom Baxriddin o'g'li

BIU Guliston filiali dotsent v.b

Tel: +998 88 905 50 90

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid ilmiy-tarixiy adabiyotlar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda Chor Rossiyasi, sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy asarlar, etnografik materiallar hamda tarixiy manbalar o'rganilgan. Ushbu manbalar asosida voha aholisining xo'jalik faoliyati, etnik tarkibi, migratsion jarayonlari va madaniy xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida Mirzacho'l vohasi etnomadaniy jarayonlarini o'rganishda manbalararo yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Mirzacho'l vohasi, xo'jalik turmush tarzi, etnomadaniyat, tarixiy manbalar, etnografiya, migratsiya, etnik tarkib, urf-odatlar, madaniy jarayonlar.*

**Аннотация:** *В статье представлен комплексный анализ научно-исторической литературы, посвящённой хозяйственному укладу жизни, материальной и духовной культуре населения Мирзачульского оазиса. В исследовании рассматриваются труды, созданные в период Российской империи, советской эпохи и в годы независимости, а также этнографические материалы и исторические источники. На основе данных источников раскрываются особенности хозяйственной деятельности, этнического состава, миграционных процессов и культурных характеристик населения региона. Обосновывается значимость междисциплинарного и сравнительного подхода при изучении этнокультурных процессов Мирзачульского оазиса.*

**Ключевые слова:** *Мирзачульский оазис, хозяйственный уклад, этнокультура, исторические источники, этнография, миграция, этнический состав, традиции, культурные процессы.*

**Abstract:** *This article presents a comprehensive analysis of scientific and historical literature related to the economic lifestyle, material and spiritual culture of the population of the Mirzachul oasis. The study examines works produced during the Russian Empire, Soviet period, and years of independence, as well as ethnographic materials and historical sources. Based on these sources, the features of economic activity, ethnic composition, migration processes, and cultural characteristics of the region's population are analyzed. The research*



*substantiates the importance of an interdisciplinary and comparative approach in studying the ethnocultural processes of the Mirzachul oasis.*

**Keywords:** *Mirzachul oasis, economic lifestyle, ethnoculture, historical sources, ethnography, migration, ethnic composition, traditions, cultural processes.*

**Kirish.** Hozirgi kunda mintaqaviy tarixni o'rganishda alohida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining xo'jalik turmush tarzi va etnomadaniy xususiyatlarini kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Mirzacho'l vohasi o'ziga xos tarixiy-geografik hudud sifatida alohida e'tiborni talab etadi. Mazkur hudud uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyoning boshqa vohalariga nisbatan kam o'zlashtirilgan, aholi zichligi past bo'lgan va mustaqil iqtisodiy-madaniy markaz sifatida shakllanmaganligi bilan ajralib turadi. Bu esa vohaning tarixiy taraqqiyoti va aholi turmush tarzining o'ziga xos shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik faoliyati va etnomadaniy xususiyatlarini o'rganishda ushbu hududning qo'shni vohalar – Toshkent, Xo'jand, Nurota va Jizzax bilan o'zaro aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi. Vohadagi etnomadaniy jarayonlar aynan ushbu hududlar bilan bo'lgan tarixiy aloqalar, migratsion harakatlar va xo'jalik faoliyati orqali shakllangan. Natijada vohaning turli qismlarida qo'shni hududlar madaniyati bilan o'zaro uyg'unlashgan xususiyatlar kuzatiladi.

Mazkur mavzuni yoritishda asosiy e'tibor tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga qaratiladi. Xususan, Chor Rossiyasi davri tadqiqotchilari tomonidan to'plangan statistik va etnografik ma'lumotlar, sovet davrida yaratilgan ilmiy ishlar hamda mustaqillik yillaridagi zamonaviy tadqiqotlar voha tarixini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ushbu manbalarni kompleks tarzda tahlil qilish orqali Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi, etnik tarkibi va madaniy rivojlanishining asosiy bosqichlarini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid ilmiy-tarixiy adabiyotlarni tahlil qilish, ularning ilmiy ahamiyatini aniqlash hamda vohada kechgan etnomadaniy jarayonlarning asosiy yo'nalishlarini yoritishdan iboratdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganish masalasi tarixshunoslikda turli davrlarda yaratilgan manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritilib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni shartli ravishda Chor Rossiyasi davri tadqiqotlari, sovet davri ilmiy ishlari hamda mustaqillik yillaridagi zamonaviy izlanishlarga ajratish mumkin. Har bir davrda yaratilgan ilmiy adabiyotlar voha tarixining muayyan jihatlarini yoritgan bo'lib, ular o'zaro uyg'un holda tahlil qilinganda Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik hayoti va etnomadaniy jarayonlari haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Chor Rossiyasi davrida yaratilgan ilmiy asarlar Mirzacho'l vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va etnodemografik holatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu davr tadqiqotchilari –





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



A.I. Maksheyev, L. Kostenko, N. Gavrilov, V.I. Masalskiy, A. Kaufman va boshqalarning asarlarida voha hududining o‘zlashtirilishi, aholi joylashuvi, xo‘jalik faoliyati, sug‘orish tizimi hamda ko‘chiruvchilik siyosati bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda statistik ma‘lumotlar, etnografik kuzatuvlar va amaliy tavsiflar keng o‘rin olgan bo‘lib, ular vohaning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy holatini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, rus sharqshunoslik maktabining yirik vakillaridan biri V.V. Bartoldning tadqiqotlari ham Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Uning Turkistonning sug‘orish tizimi tarixiga oid ishlari vohaning irrigatsiya masalalari, yerlarning o‘zlashtirilishi va aholi xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarni yoritishda alohida ahamiyatga ega. Bu davr manbalarida voha asosan tabiiy-geografik sharoiti og‘ir, kam aholi yashaydigan hudud sifatida tasvirlangan bo‘lsa-da, ayrim tadqiqotlarda qadimiy sug‘orish tizimlari izlari va tarixiy aholi maskanlari haqida ham muhim ma‘lumotlar keltirilgan.

Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlarda Mirzacho‘l vohasining o‘zlashtirilishi, sug‘orish tizimlarini rivojlantirish va yangi aholi maskanlarini barpo etish masalalari markaziy o‘rinda bo‘lgan. A.G. Abdunabiyev, M. Abdurazzoqov, A. Razzoqov kabi tadqiqotchilar tomonidan yozilgan asarlarda vohaning iqtisodiy o‘zlashtirilishi, irrigatsiya ishlari, yerlarning meliorativ holati hamda aholi joylashuvi masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, bu davr tadqiqotlarida sovet mafkurasi ta‘siri sezilib tursa-da, ular tarkibida voha tarixiga oid qimmatli birlamchi ma‘lumotlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

Mustaqillik yillarida Mirzacho‘l vohasi tarixini o‘rganishga bo‘lgan ilmiy yondashuv sezilarli darajada kengaydi va chuqurlashdi. Bu davr tadqiqotlarida vohaning demografik rivojlanishi, etnik tarkibi, migratsion jarayonlari va etnomadaniy xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilina boshladi. Jumladan, B. Aminov, R. Egamberdiyev, U. Alibekov, Z. Ashirboyeva, O. Komilov, Z. Mahmudov va boshqa olimlarning ishlari vohaning XX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o‘zgarishlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Nurota, Jizzax va Toshkent vohalari etnografiyasiga oid tadqiqotlarda ham Mirzacho‘l vohasi bilan bog‘liq etnomadaniy jarayonlar qisman yoritilgan.

Bundan tashqari, toponimik va etnografik tadqiqotlar ham voha tarixini o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. S. Qorayevning joy nomlariga oid ishlari Mirzacho‘l hududidagi etnotoponimlar, ularning kelib chiqishi va tarixiy il dizlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. A. Gritsina va A. Malikovning tadqiqotlari esa vohadagi etnik guruhlar, urug‘-qabilaviy tuzilma hamda aholi joylashuvi bilan bog‘liq masalalarni yoritishda alohida o‘rin tutadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar Mirzacho‘l vohasi aholisining xo‘jalik turmush tarzi va etnomadaniy xususiyatlariga doir ma‘lumotlar turli davr va turli yo‘nalishlarda yaratilgan manbalarda aks etganini ko‘rsatadi. Shu bois, ushbu manbalarni kompleks ravishda o‘rganish, ularni o‘zaro taqqoslash va tizimli tahlil qilish voha tarixini yanada chuqurroq va har tomonlama yoritish imkonini beradi.





**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi va etnomadaniy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik va ilmiylik tamoyillariga asoslangan metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini tarixshunoslik, etnografiya va ijtimoiy-iqtisodiy tarix fanlarining metodologik prinsiplari tashkil etadi. Shu bilan birga, mintaqaviy tarixni kompleks o'rganishga yo'naltirilgan manbashunoslik yondashuvi asosiy metodik yo'nalish sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida turli davrlarga oid ilmiy adabiyotlar, arxiv materiallari, statistik ma'lumotlar hamda etnografik kuzatuvlar tahlil qilindi. Tahlil va sintez metodlari yordamida Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik faoliyati, migratsion jarayonlari va etnomadaniy xususiyatlariga oid ma'lumotlar ajratib o'rganildi va umumlashtirildi. Qiyosiy-tarixiy metod asosida Chor Rossiyasi, sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'zaro taqqoslanib, ularning mazmuni, yondashuvi va ilmiy ahamiyati aniqlashtirildi. Bu esa vohaning tarixiy rivojlanish bosqichlarini izchil ravishda yoritish imkonini berdi.

Tizimli yondashuv asosida Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi va madaniyati o'zaro bog'liq omillar majmuasi sifatida ko'rib chiqildi. Xususan, tabiiy-geografik sharoit, sug'orish tizimlari, demografik o'zgarishlar, migratsion jarayonlar va etnik tarkib o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar tahlil qilindi. Manbashunoslik metodlari yordamida tadqiqotda foydalanilgan yozma manbalar va ilmiy adabiyotlarning ishonchlilik darajasi, yaratilish sharoiti hamda mualliflik pozitsiyasi baholandi. Shuningdek, etnografik yondashuv asosida voha aholisining urf-odatlarini, an'analari, xo'jalik yuritish shakllari va kundalik turmushiga oid ma'lumotlar o'rganildi. Umumlashtirish va interpretatsiya metodlari orqali turli manbalarda uchraydigan ma'lumotlar yagona ilmiy tizimga keltirilib, ular asosida asosli xulosalar shakllantirildi. Natijada Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi va etnomadaniy jarayonlarini o'rganishda kompleks va manbalararo yondashuvning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot jarayonida Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi va etnomadaniy xususiyatlariga doir mavjud ilmiy adabiyotlar hamda tarixiy manbalar qiyosiy-tahliliy asosda o'rganildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, voha hududining tabiiy-geografik sharoiti, xususan, suv resurslarining cheklanganligi va keng cho'l hududlarining ustunligi aholi xo'jalik faoliyatining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Natijada Mirzacho'l vohasida tarixan chorvachilik va yarim ko'chmanchi xo'jalik shakllari ustun bo'lib, dehqonchilik asosan sug'oriladigan hududlar bilan cheklangan.

Chor Rossiyasi davriga oid manbalar tahlili vohada aholi zichligining pastligi, xo'jalik faoliyatining asosan tabiiy sharoitga bog'liqligi hamda sug'orish tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim manbalarda qadimiy sug'orish inshootlari izlari va ilgari mavjud bo'lgan dehqonchilik an'analari qayd etilishi vohaning tarixiy davrlarda qisman o'zlashtirilganligini tasdiqlaydi. Bu esa vohada xo'jalik faoliyatining uzluksiz emas, balki davriy xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Sovet davri tadqiqotlari tahlili natijasida Mirzacho'l vohasining keng ko'lamda o'zlashtirilishi, irrigatsiya tizimlarining barpo etilishi va yangi aholi punktlarining tashkil etilishi bilan bog'liq tub o'zgarishlar yuz berganligi aniqlandi. Ayniqsa, yirik meliorativ loyihalar natijasida cho'l hududlarning qishloq xo'jaligi aylanmasiga kiritilishi vohada dehqonchilikning rivojlanishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, bu jarayonlar aholi tarkibining o'zgarishi, yangi migratsion oqimlarning shakllanishi va etnomadaniy muhitning yangilanishiga olib kelgan.

Mustaqillik yillaridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili esa vohaning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy rivojlanishini yangi nuqtai nazardan yoritishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Ushbu davrda olib borilgan izlanishlarda Mirzacho'l vohasining demografik o'zgarishlari, etnik tarkibining shakllanishi, migratsiya jarayonlari hamda madaniy transformatsiyalar chuqurroq tahlil qilingan. Natijada vohaning etnomadaniy qiyofasi turli hududlardan ko'chib kelgan aholi guruhlarining o'zaro ta'siri natijasida shakllangan murakkab tizim ekanligi aniqlangan.

Etnografik materiallar asosida olib borilgan tahlillar voha aholisining turmush tarzida ko'chmanchi va o'troq madaniyat unsurlarining uyg'unlashganligini ko'rsatdi. Xususan, chorvachilikka xos an'analar bilan bir qatorda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va uy-ro'zg'or madaniyatiga oid elementlar ham keng tarqalgan. Bu esa Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik va madaniy hayoti tarixiy jarayonlar davomida transformatsiyaga uchraganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar natijasida Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi va etnomadaniy xususiyatlari tabiiy-geografik sharoit, tarixiy siyosiy jarayonlar va migratsion omillar ta'sirida shakllangan murakkab tizim ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu bilan birga, turli davrlarga oid manbalarni kompleks tarzda o'rganish vohaning tarixiy rivojlanishini yanada chuqurroq va tizimli yoritish imkonini berishi aniqlandi.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqot natijalari Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi va etnomadaniy xususiyatlari tarixiy, tabiiy-geografik hamda ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan murakkab va ko'p qatlamli tizim ekanligini ko'rsatdi. Xususan, vohaning tabiiy sharoiti, suv resurslarining cheklanganligi va keng cho'l hududlarining mavjudligi uzoq vaqt davomida chorvachilik va yarim ko'chmanchi xo'jalik shakllarining ustun bo'lishiga olib kelgan. Keyingi davrlarda, ayniqsa sovet davrida amalga oshirilgan irrigatsiya va meliorativ tadbirlar natijasida vohaning iqtisodiy qiyofasi tubdan o'zgarib, sug'orma dehqonchilik va doimiy aholi joylashuvi kengaydi. Bu jarayonlar esa vohaning demografik tarkibi, migratsion jarayonlari va etnomadaniy muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Mirzacho'l vohasi aholisining madaniy hayoti ko'chmanchi va o'troq madaniyat unsurlarining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllangan bo'lib, bu holat hududning tarixiy rivojlanish bosqichlari bilan bevosita bog'liqdir. Turli davrlarda vohaga ko'chib kelgan aholi guruhlarining o'zaro ta'siri natijasida etnik va madaniy xilma-xillik yuzaga kelgan hamda bu jarayon vohaning o'ziga xos etnomadaniy qiyofasini shakllantirgan. Shu bilan birga, mavjud manbalar tahlili voha tarixiga oid ma'lumotlarning





turli davr va manbalarda parokanda holda saqlanib qolganligini ko'rsatadi, bu esa mazkur yo'nalishda kompleks tadqiqotlar olib borish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi: Mirzacho'l vohasi tarixini o'rganishda manbalararo yondashuvni keng qo'llash, yozma manbalar bilan bir qatorda etnografik, arxiv va statistik materiallardan kompleks foydalanish zarur; voha hududida dala tadqiqotlarini kengaytirish, mahalliy aholi orasida saqlanib qolgan tarixiy xotira, urf-odat va an'analarni ilmiy asosda qayd etish maqsadga muvofiq; Mirzacho'l vohasining etnomadaniy jarayonlarini boshqa mintaqalar bilan qiyosiy o'rganish orqali umumiy tarixiy qonuniyatlarni aniqlash lozim; shuningdek, voha tarixiga oid mavjud ilmiy adabiyotlar va manbalarni tizimlashtirish hamda ularni zamonaviy metodlar asosida qayta tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Umuman olganda, Mirzacho'l vohasi aholisining xo'jalik turmush tarzi va etnomadaniy xususiyatlarini chuqur o'rganish nafaqat ushbu hudud tarixini yanada to'liq yoritishga, balki Markaziy Osiyo mintaqasidagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni kengroq anglashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Васильевъ Н. Кочевники Туркестана (Опытъ экономического обзора). Самаркандъ: Типо-Литография Н.В.Полтаранова, 1890. – 162 с.; Наливкин В. Туземцы раньше и теперь. Очерк В.П.Наливкина. Ташкент: Изд. А.Л.Кирснера, 1913. 144 с.; Лавров М.В. Туркестанъ. География и история края. М.: Думковъ, Клочковъ, Луковниковъ и К, 1914. 198 с.

2. Мирзаева Н.Ж. Рус тадқиқотчилари асарларида Мирзачўл воҳаси тарихи (XIX аср охири-XX аср бошлари)// XIX – XX аср бошларида Марказий Осиёда интеллектуал мерос: анъаналар ва инновациялар илмий тўплами. - Тошкент – 2018. – Б. 129-134.

3. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Спб., 1914. 174 с.; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Ленинград: Изд. АН СССР, 1927. – С. 25.

4. Макшеев А.И. Географические, этнографические и статистические материалы о Туркестанском крае. Записки Императорского Русского географического общества по отделению статистики. Спб., 1871. 60 с.; Костенко Л. Средняя Азия и водворение въ ней русской гражданственности. Спб.: Изд. А.Базунова, 1871. – 358 с.; Кушакевич А. Сведения о Ходжентском уезде. Спб., 1875. 20 с.

5. Гаврилов Н. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сыр-Дарьинская, Самаркандская и Ферганская). – Спб., 1911.

6. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. История и культура центральной Азии, 1(1), 122-125.

7. Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(10), 25-31.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



8. Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. Наука, образование и культура, (4 (48)), 85-87.

9. Неъматов, Р. (2023). Хоразм Африғийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. Journal of Fundamental Studies, 1(7), 16-23.

10. Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(6), 14-23.

11. Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 3(12), 72-78.

12. Ne'matov, R. (2023). ИЛК О 'RTA ASRLARDA ХОРАЗМ ТАРИХШУНОСЛИГИНИНГ О 'ZIGA ХОС ЈИНАТЛАРИ. Interpretation and researches, 1, 21.

13. Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. American Journal of Philological Sciences, 5(02), 10-16.

14. Неъматов, Р. А. Ў. (2024). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ. Science and innovation, 3(Special Issue 6), 377-382.

15. Nematov, R. A. (2024). ESTABLISHMENT OF THE ADMINISTRATION OF THE WESTERN TURKISH EMPIRE IN THE KHORAZM OASIS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES (Vol. 1, No. 2, pp. 43-49).